PEDAGOGIK TADQIQOTLAR JURNALI
ISSN: 3060-4923 Impact Factor –7,212

O‘QUV LUG‘ATSHUNOSLIGI TURLARI, VAZIFALARI VA PRINSIPLARI

Sharifjonova Ruxsora

Farg’ona davlat universiteti

Filologiya fakulteti o‘zbek tili yo‘nalishi IV bosqich talabasi

Doi: https://doi.org/10.5281/zenodo.19997998

Annotatsiya : Ushbu maqolada zamonaviy tilshunoslikning muhim tarmoqlaridan biri bo‘lgan o‘quv lug‘atshunosligining nazariy va amaliy asoslari tadqiq etiladi. Maqolada o‘quv lug‘atlarining turlari, ularning ta’lim jarayonidagi o‘rni va asosiy vazifalari batafsil yoritilgan. Shuningdek, o‘quv lug‘atlarini tuzishda amal qilinadigan ilmiy-metodik prinsiplar, xususan, leksik birliklarni tanlash, ularni sodda va tushunarli izohlash hamda o‘quvchining yosh xususiyatlarini hisobga olish masalalari tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari ona tili va chet tillarini o‘qitish metodikasini takomillashtirishda amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so‘z : O‘quv lug‘atshunosligi, leksikografiya, o‘quv lug‘ati, lug‘at turlari, lingvodidaktika, lug‘at prinsiplari, leksik minimallik, annotatsiya, izohli lug‘at, o‘quv jarayoni.

Abstract: This article examines the theoretical and practical foundations of educational lexicography, one of the important branches of modern linguistics. The paper provides a detailed overview of the types of educational dictionaries, their role in the educational process, and their primary functions. Furthermore, it analyzes the scientific and methodological principles followed in compiling educational dictionaries, specifically focusing on the selection of lexical units, simple and clear definitions, and consideration of the student's age characteristics. The research findings are of practical importance in improving the methodology of teaching mother tongues and foreign languages.

Keywords: Educational lexicography, lexicography, educational dictionary, types of dictionaries, linguodidactics, dictionary principles, lexical minimum, annotation, explanatory dictionary, educational process.

Аннотация : В данной статье исследуются теоретические и практические основы учебной лексикографии как одного из важных разделов современного языкознания. В работе подробно рассматриваются виды учебных словарей, их роль в образовательном процессе и основные функции. Также анализируются научно-методические принципы составления учебных словарей, в частности, вопросы отбора лексических единиц, доступности толкований и учета возрастных особенностей учащихся. Результаты исследования имеют практическое значение для совершенствования методики преподавания родного и иностранного языков.

Ключевые слова : Учебная лексикография, лексикография, учебный словарь, типы словарей, лингводидактика, принципы составления словарей, лексический минимум, аннотация, толковый словарь, учебный процесс.

Kirish.

So‘z hodisasi tilshunoslikning deyarli barcha sohalarida fundamental birlik sifatida tadqiq etiladi. Xususan, leksikografiya sohasida so‘z nafaqat o‘rganish obyekti, balki lug‘atning asosiy qurilish materiali vazifasini ham bajaradi. Ma’lumki, yunoncha «lexicon» (lug‘at)

va «grafo» (yozmoq) so‘zlaridan tashkil topgan leksikografiya sohasi bevosita lug‘atlar yaratish nazariyasi va amaliyoti bilan shug‘ullanadi.[1]

Lug‘at nima va u qanday tamoyillar asosida tuziladi? Bu kabi savollarga javob topish uchun qomusiy manbalarga murojaat qiladigan bo‘lsak, lug‘at tushunchasiga ikki xil yondashuv mavjudligini ko‘ramiz. Birinchidan, lug‘at — muayyan tilda, uning hududiy yoki ijtimoiy lahjalarida mavjud bo‘lgan, shuningdek, u yoki bu yozuvchi asarlarida qo‘llangan barcha so‘zlar yig‘indisi, ya’ni leksikadir. Ikkinchidan, u so‘zlar, morfemalar yoki iboralarning muayyan tartibda (alifboli, mavzuli yoki uyali) joylashtirilgan, ularning ma’nosi, kelib chiqishi, imlosi va uslubiy xususiyatlari haqida ma’lumot beruvchi maxsus kitobdir.

Turli turdagi lug‘atlarning yaratilishi ulkan umummadaniy ahamiyatga ega bo‘lib, ular xalq ommasiga bilim berishda muhim ma’rifiy-oqartuv funksiyasini bajaradi. Garchi har qanday lug‘atda axborot berish va nimanidir o‘rgatish maqsadi mavjud bo‘lsa-da, bevosita ta’lim jarayoniga yo‘naltirilgan lug‘atlar o‘quv lug‘ati toifasiga kiritiladi.

O‘quv lug‘atlari o‘zining mustaqil ko‘rinishi, ta’limiy yo‘nalganligi va muhim o‘quv vositasi ekanligi bilan ajralib turadi. Pedagogik tushunchalarning qomusiy lug‘atida ta’kidlanganidek, bunday lug‘atlar maxsus lingvodidaktik tamoyillar asosida tuziladi. Ularda so‘zlikning tarkibi, tanlash mezonlari, materialning joylashtirilishi, lingvistik ma’lumotni taqdim etish usuli hamda hajmi va dizayni o‘quvchining yosh va psixologik xususiyatlariga to‘liq moslashtirilgan bo‘ladi.[2]

Asosiy qism .

Lug‘atlar asosan ikki turga bo‘linadi: qomusiy (ensiklopedik) va filologik (lingvistik) lug‘atlar.

Ensiklopedik lug‘atlar so‘zlarning qisqacha ma’nosini va tushunchalar izohini berish asosida tuziladi. Qomusda barcha narsa va hodisalar, shaxslar, fan va texnika haqida ma’lumotlar keltirilib, zaruriy xarita, rasm hamda sxemalar bilan boyitiladi. So‘zning o‘zi haqida esa faqat uning kelib chiqishini ko‘rsatish bilan kifoyalaniladi. Shu sababli bunday lug‘atlar "tushuncha lug‘ati", G‘arbda esa "Husanrus" deb ham yuritiladi. Qomusiy lug‘atlar umumiy (masalan, 13 jildlik «O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi») va xususiy (sohalarga oid) bo‘lishi mumkin.

Lingvistik lug‘atlar ensiklopedik lug‘atlardan tubdan farq qiladi. Ularning asosiy obyekti til birligi bo‘lib, so‘zning ma’nosi, grammatik, uslubiy xususiyatlari, shuningdek, frazema, parema va toponimlar haqida ma’lumot beradi. Lingvistik lug‘atlar ham o‘z navbatida quyidagi ichki turlarga bo‘linadi:

- Izohli lug‘at – so‘z ma’nolari, qo‘llanish sohasi, fonetik va grammatik xususiyatlarini yoritadi.
- Xorijiy so‘zlar lug‘ati – tildagi o‘zlashma so‘z va terminlarni izohlaydi.
- Tarjima lug‘ati – bir tildagi so‘zlarni boshqa tilga o‘girib beradi (ikki yoki ko‘p tilli).
- Tarixiy lug‘at – so‘zlarning paydo bo‘lishi va tarixiy taraqqiyotini ko‘rsatadi.
- Sheva (dialektal) lug‘ati – adabiy tildan farq qiluvchi mahalliy so‘zlarni jamlaydi.
- Etimologik lug‘at – so‘zlarning kelib chiqishi va birlamchi ma’nosini tadqiq etadi.
- Qiyosiy lug‘at – qarindosh tillardagi so‘zlarni o‘zaro qiyoslaydi.

---

[1] Tursunov Jahongir.Ta’limiy lug‘at yaratish tamoyillari. //Oriental Renaissance: Innovative,educational, natural and social sciences. –Toshkent, 2021. №1. 388-bet.

[2] Mengliyev B, Baxriddinova.B. O‘zbek tilining so‘z tarkibi o‘quv lug‘ati. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2009. 5-bet.

- Imlo lug‘ati – so‘zlarning imlo qoidalari asosida to‘g‘ri yozilishini belgilaydi.
- Talaffuz (orfoepik) lug‘ati – so‘zlarning adabiy talaffuz me’yorlarini ko‘rsatadi.
- Morfem lug‘at – so‘zlarning tarkibiy (morfem) tuzilishini tahlil qiladi.
- Frazeologik lug‘at – tildagi iboralar va turg‘un birikmalarni izohlaydi.
- Chastotali lug‘at – so‘zlarning matnda qo‘llanish darajasi va foizini ko‘rsatadi.
- Ters (chappa) lug‘at – so‘zlar oxirgi harflarining alifbo tartibida joylashishi bilan tuziladi.
- Mavzuviy lug‘at – so‘zlar muayyan sohalar yoki mavzular bo‘yicha guruhlanadi.
- Lug‘aviy shakldoshlar lug‘ati – omonimlar, sinonimlar, antonimlar va paronimlarni o‘z ichiga oladi.
- Onomastik lug‘atlar – atoqli otlar (antroponimik) va joy nomlari (toponimik) lug‘atlari.
- Muallif tili lug‘atlari – muayyan yozuvchi yoki asar tilida qo‘llangan so‘zlarni izohlaydi (masalan, Alisher Navoiy asarlari lug‘ati).
- Terminologik lug‘at – fan, texnika yoki xo‘jalik sohalariga oid maxsus terminlarni qamrab oladi.

Har ikki turdagi lug‘atlar uchun umumiy jihat – ularning ma’lum bir tartibda (asosan alifbo bo‘yicha) tuzilishi hamda hajman turlicha (katta, o‘rtacha, kichik) bo‘lishidir. [3]Lug‘atlar boshqa xususiyatlari hisobga olingan holda yana ichki guruhlarga ajratilishi mumkin. Masalan, qamroviga ko‘ra “to‘liq lug‘atlar” va “qisqacha lug‘atlar” (jumladan, 1962-yilda Toshkentda nashr etilgan “O‘zbek tili sinonimlarining qisqacha lug‘ati”) kabi turlar mavjud.[4]

O‘quv lug‘atlari tarkibi va maqsadiga ko‘ra bir necha turga bo‘linadi. O‘quv izohli lug‘atlari so‘zning ma’nosini sodda tilda izohlab, uning gapdagi vazifasini ko‘rsatib beradi. O‘quv orfografik lug‘atlari so‘zlarning to‘g‘ri yozilishini ta’minlasa, o‘quv frazeologik lug‘atlari barqaror birikmalar va iboralarni tushuntiradi. Ikki tilli o‘quv lug‘atlari o‘zga tilda so‘zlashuvchilar uchun ona tilidagi so‘zlarni tarjima va izoh orqali o‘rgatadi. O‘quv sinonimlar hamda antonimlar lug‘atlari esa so‘z boyligini oshirish va nutqni boyitish uchun xizmat qiladi.

O‘quv lug‘atlarining barcha turida pedagogik nutqqa, ya’ni didaktik yo‘naltirilgan leksikografik bayonga katta e’tibor beriladi. Bunday lug‘atning tili o‘qituvchining pedagogik nutqi yoki darslikning didaktik tili bilan bir xil tabiatga ega bo‘ladi. Har bir o‘quv lug‘atining asosiy muammolaridan biri so‘zlikni shakllantirishdir. Bunday lug‘at o‘zbek tilining ko‘p qo‘llanadigan va muhim leksikasini aks ettirishi kerak. Unga tilning leksik yadrosini tashkil qiluvchi so‘zlar bilan birga, turli nutq vaziyatlarini qamrab oladigan, har qanday holatda muloqot qilish uchun yetarli bo‘lgan zarur leksik minimum ham kiritiladi.

O‘quv lug‘atining o‘ziga xosligi leksik birliklarni izohlashda ham namoyon bo‘ladi; izohlar sodda, tushunarli, qisqa va aniq bo‘lishi lozim. So‘z ma’nosini o‘quv maqsadida izohlashning bir necha samarali usuli mavjud: umumiy tushunchani xususiy, soddaroq tushuncha orqali izohlash (masalan, hasharot – ari, chumoli, qo‘ng‘iz), mazmunan yaqin tushunchalarni o‘ziga xos farqli belgisi orqali chegaralash (qalin – o‘lchami katta, yo‘g‘on – ko‘ndalang kesimi katta), ma’noni surat yoki

---

[3] Karimova Gulnoza. Ta’limiy lug‘atlarini yaratish-davr zarurati. O‘zbek amaliy tilshunosligi va lingvodidaktikasi masalalari. – Toshkent: ToshDOTAU, 2021. 266-bet.

4 Umumiy o‘rta ta’limning davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturi.Ona tili. Adabiyot….Ta’lim taraqqiyoti.1- maxsus son. – Toshkent, 1999.

chizma yordamida ifodalash, shuningdek, so‘zlar birikuvchanligi orqali (yashirin) izohlash kabilar shular jumlasidandir.

O‘quv lug‘atida so‘zning paradigmatikasi, ya’ni sinonimik, antonimik, leksik-semantik va mavzuviy guruhlari muntazam hamda aniq ko‘rsatilishi shart. Shu sababli o‘quv leksikografiyasida mavzuviy (ideografik) lug‘atlar tuzish dolzarb masala hisoblanadi. O‘quv lug‘atidagi so‘z maqolasi tuzilishi ham o‘ziga xosdir. Unda so‘z haqidagi lingvistik, grammatik, semantik va orfoepik ma’lumotlar qat’iy bir xillikka keltirilishi lozim. Lug‘at maqolasida so‘z, uning shakllari va nutqda qo‘llanishi haqida, ya’ni o‘quvchiga tildan faol foydalanishga yordam beradigan barcha zaruriy axborotlar to‘liq berilishi kerak.

Xulosa.

Lug‘atlar insoniyat ma’naviy merosini asrash va til boyligini tizimli ravishda yetkazib berishda asosiy vosita hisoblanadi. Ular vazifasiga ko‘ra ensiklopedik va lingvistik turlarga bo‘linib, har biri voqelikni o‘ziga xos uslubda yoritadi. Lingvistik lug‘atlar tilning ichki imkoniyatlarini, ya’ni so‘zning ma’nosi, imlosi va talaffuzini me’yorga solishga xizmat qiladi. Ayniqsa, o‘quv leksikografiyasi yosh avlodga tilni tizimli o‘rgatishda o‘zining didaktik yo‘naltirilganligi bilan ajralib turadi. O‘quv lug‘atlari sodda va tushunarli tilda tuzilishi orqali o‘quvchining so‘z boyligini samarali oshirish imkonini beradi. Har qanday lug‘atning sifati uning leksik yadrosini tashkil qiluvchi so‘zlarning qanchalik to‘g‘ri tanlanganiga bog‘liqdir. Zamonaviy lug‘atchilikda nafaqat alifbo tartibi, balki mavzuviy va chappa tartibdagi lug‘atlarning ham ahamiyati ortib bormoqda. Lug‘atlardagi paradigmatik munosabatlar (sinonim, antonim) tilning naqadar boy va rang-barang ekanini ko‘rsatib beradi. Shuningdek, terminologik va muallif tili lug‘atlari fan va adabiyot rivojini o‘rganishda muhim manba vazifasini o‘taydi. Xulosa qilib aytganda, mukammal tuzilgan lug‘at til madaniyatini yuksaltirish va muloqot jarayonini osonlashtirishning poydevori sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati :

1. Berdiyeva Shahnoza. O‘quvchilarning so‘z boyligini oshirishda o‘quv izohli lug‘atlarining ahamiyati. O‘zbek amaliy tilshunosligi va lingvodidaktikasi masalalari. – Toshkent: ToshDOTAU, 2021. 264-bet.
2. Karimova Gulnoza. Ta’limiy lug‘atlarini yaratish-davr zarurati. O‘zbek amaliy tilshunosligi va lingvodidaktikasi masalalari. – Toshkent: ToshDOTAU, 2021. 266-bet.
3. Karimov I.A.Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008.176-bet.
4. Mengliyev B, Baxriddinova.B. O‘zbek tilining so‘z tarkibi o‘quv lug‘ati. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2009. 5-bet.
5. Морковин В.В. Основы теории учебной лексикографии: Дисс… док. филол. наук. (в форме научного доклада): –Москва: Институт русского языка им. А.С.Пушкина, 1990. –72 с.
6. Tursunov Jahongir.Ta’limiy lug‘at yaratish tamoyillari. //Oriental Renaissance: Innovative,educational, natural and social sciences. –Toshkent, 2021. №1. 388-bet.
7. Umumiy o‘rta ta’limning davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturi.Ona tili. Adabiyot….Ta’lim taraqqiyoti.1- maxsus son. – Toshkent, 1999.